



BUXORO MUHOJIRLARI TARIXI

Rashidova Farida Fatullaevna

Navoiy shahar kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro tarixida muhojirlar harakati, faoliyatini yoritishga bag'ishlanadi. Muhojirlarning harakati, matbuotdagi faollik, jadidchilik harakati fonidagi o'zgarishlar maqolaning tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: da`vat, jadid, muhojur, tashviqot, islohot, harakat.

KIRISH

Birinchi jaxon urushi yillarda Buxoroda jadidchilik harakati rivojlanib, 1916 yildan "Yosh buxoroliklar" tashkiloti o'z faoliyatini kuchaytirdi. Tashkilot faollari bo'lgan Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev, Abdurauf Fitrat, M.Saidjon, Otaulla Xo'ja, A.Munzim, Hamidxo'ja, Fayzulla Xo'jaev kabilalar "amirning ko'zini ochish va uni progressiv islohotlar qilish"ga ko'ndirish bilan bog'liq tashviqot hamda targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Birinchi jaxon urushi Sharq dunyosini arosatda tutib turgan yirik mustamlakachi davlatlar o'rtasida boshlangan va urush xarakatlari Turkiston mintaqasidan uzoq xududlarda olib borilayotgan edi. Biroq taraqqiyat parvar ziyorilar urush davrida Sharq mamlakatlari, jumladan Buxoro amirligini ham chor Rossiyasi asoratidan qutulish soati kelgan edi, deb hisoblaydilar. Jumladan A.Fitrat "Bilimsiz qolgan Sharq bu to'gri yo'lni ko'ra olmadi. Bu fursatni ham qochirdi. Sharq birlashmadi, ayrildi. Jopuniyo (Yaponiya) inglizga qo'shildi, Turkiya olmonlar bilan yurdi, Eron va Afg'oniston betaraf qoldilar. Xitoy va Turkistondagi musulmonlarga kelganda bular dunyoda nima bo'lib turganini anglaganlari ham yo'q edi"-deb yozgandi [2: 20-b]. Abdurauf Fitratning yuqoridagi fikrlaridan ko'rinish turibdiki, o'sha davrda jahonda kechayotgan jarayonlarni teran va to'g'ri baholay olgan "Yosh buxoroliklar" ichki masalalarda ham qat'iy maqsadlarga ega edilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'p o'tmay, 1917 yilning fevralida Rossiya poytaxti Peterburgda muhim siyosiy jarayonlar ro'y berdi. Amirlikning ruslar istiqomat qiladigan hududlarida hokimiyat Rossiya muvaqqat hukumatining ijroya komitetlari qo'liga o'tdi. 1917 yilning 12 martida Yangi Buxoro (Kogon)da ijroqo'm saylandi. "Yosh buxoroliklar" o'z maqsadlarini Rossiya muvaqqat hukumi orqali amalga oshirmoqchi bo'lib, Petrogradga telegramma orqali murojat etib, amirni islohot o'tkazishga ko'ndirishni iltimos qildilar. Javob bo'limgach ikkinchi telegramma yuborildi. Bu bilan kifoyalanmay Abduruf Fitrat bilan Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev Petrogradga otlandi. Ular Orenburgga yetganlarida "Yosh buxoroliklar" va amir o'rtasidagi kelishmovchilarni hal etish uchun Rossiya poytaxtidan maxsus komissiya yo'lga chiqqani haqidagi xabarni oldilar va





orqaga qaytdilar [3: 51-b]. Bundan ko'rinish turibdiki, Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev "Yosh buxoroliklar" partiyasida eng obro'li a'zolaridan biri edi. 1917 yil 15 martda partiya MK ga saylovlar o'tkazildi va A.Munzim (rais), A.Fitrat (kotib), U.Po'latxo'jaev (xazinachi), MK a'zolarining yarmidan ko'pi "Tarbiyai atfol" dan (1908 yilda tuzilgan "Bolalar tarbiyasi") tashkilotidan edilar. Usmon Xo'ja Po'latxo'jaevga partiya MKda eng mas'uliyatli vazifalardan biri yuklangandi [4: 21-b].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Amir zindonidan qutulgan Usmon Xo'ja 15 nafar sheriklari bilan Yangi Buxoro (Kogon)ga keladi va u yerdan bir qism jadidlar Samarcandga, bir qism jadidlar Toshkentga ketishdi. Usmon Xo'ja va Abdurauf Fitrat Toshkentga muhojirlikka ketishdi. Ahmad Nayim esa ikki turk zobiti hamkorligida amir ayg'oqchilari ta'qibidan qochib Ashxabod – Mashhad – Tehron – Mosul – Damg'on – Tabriz shaharlari orqali Istanbulga ketadi. Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev Buxoro ozodligi masalasini butun Turkiston xalqlari ozodligi va demokratiyasi bilan yaxlit holda tasavvur etardi. Shuning uchun u Turkistonda taraqqiyparvar kuchlar tomonidan o'tkazilgan xar bir jarayonni nazardan chetda qoldirmasdi. 1917 yil 8 sentabrda Turkiston musulmonlarining qurultoyi Toshkentda ish boshlaydi. Qurultoyni barcha taraqqiyparvar kishilar qatorida buxorolik Usmon Xo'ja ham tabriklaydi [5: 18- b]. 1918-1920 yillarda Usmon Xo'ja Toshkent va Samarcand shaxarlarida istiqomat qiladi [4: 23-b].

Yuqorida qayd qilingandek, Samarcand va Toshkent shaharlarida muhojirlikda istiqomat qilgan Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev Turkiston ASSRda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok qilib, mahalliy aholi orasida milliy ozodlik g'oyalarini targ'ib qilishda davom etgandi. Turkistonda tashkil topgan milliy tashkilotlar bilan Turkkomissiya (keyinchalik O'rta Osiyo byurosi) o'rtasidagi kurashlarda Munavvar Qori Abdurashidxonov bilan bir safda Usmon Xo'ja, Otaulla Xo'ja, Abduqodir Muhiddinovlar ishtirok qilganlar. Hatto, Abduqodir Muhiddinov O'rta Osiyo musulmonlar Byurosini (Musbyuro) (1919-1920 yillar) tuzishda faol ishtirok etgan [10: 182-183- v]. Ma'lumki, Musbyuroning 1919-1920 yillarda uch bor konferensiyasi bo'lib o'tgan.

Musbyuro faoliyat yuritgan davrda, "Markaz"dan yuborilgan va o'lkada ish yuritayotgan Yevropa millati vakillaridan Salkin, Kazakov, Kobozev kabilar ulug' davlatchilik va shovinizmdan iborat mustamlakachilik siyosatini targ'ib qilayotgan edilar. Bunday tarixiy sharoitda Turkiston Markaziy Ijroya Qo'mitasi (TMIK), Musbyuro va Turkkomissiyadan iborat o'ziga hos uch hokimiyatchilik vujudga kelgan edi.

Ikkinci tomondan, "Toshkent jadidlarining otasi" Munavvar Qori Abdurashidxonovning "Hurriyat berilmas, olinur. Xech narsa ila olib bo'limas, faqat qon va qurban ila olib bo'lur!" degan fikrlari Usmon Xo'ja singari Buxoro muhojirlari dunyoqarashida o'z izini qoldirishi tabiiy hol edi. 1919 yil 24 may-16 iyun kunlari Toshkentda Musbyuroning I-ta'sis konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyada Musbyuro raisi Turar Risqulov ushbu tashkilotning tuzilish sabablari, faoliyati, vazifalari, va istiqbolli dasturi haqida ma'lumot berishga qaratilgan nutqini so'zlaydi.





Musbyuroning boshqa a'zolari qatori Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev ham ta'sis konferensiyasida ishtirok etib, Musbyuro milliy manfaatlar uchun kurash olib borishga qaratilgan tashkilot bo'lishi kerakligiga asosiy urg'u bergan. Uning nutqida Musbyuro mahalliy ziyyolilarni, rahbar kadr va milliy kommunistlarni xar qanday bo'xtон va ig'volardan himoya qilishi, o'lkada tarqalgan ocharchilik oqibatlari qarshi kurash olib borib, tub aholining manfaatlarini ko'zlashi, "yangi kommunistlar"ning buyuk davlatchilikdan iborat shovinismiga qarshi kurashi, milliy qo'shin tuzishga erishishi kabi masalalar ko'tarilgan. Xullas, Musbyuroning olti punktdan iborat vazifalarini shakllantirishda Usmon Xo'ja va Abdulqodir Muhiddinovlarning xizmatlari ham bor edi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, 1920 yil sentabrda Buxoroda monarxiya tartibi ag'darilganiga qadar yashagan Usmon Xo'ja va uning safdoshlari Turkiston ozodligi va milliy manfaatlar uchun kurashlar maydonida bo'ldilar.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ibrahim Yarkin. "Kosaoglu Osman"// "Turk kulturi". (1968). – b. 123.
2. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon-T: "Cho'lpon", 1992.–77 b.
3. Ibrohim Yorqin. Xotiralar// Jahon adabiyoti. 1993. №7.–B. 134-144
4. Baymirza Hayit. Turkistan devletlerin milli mucadeleleri tarihi. Ankara. Turk tarix kurumi. 1995. – S.206
5. Abdulloh Rajab Boysun. Turkiston milliy harakatlari. Istanbul. 1943. – B. 40-41 (arabimlosida).
6. Ali Bodomchi. 1917-1934 yillar Turkiston milliy harakati va Anvar posho. Qo'rleshilar.Birinchi jild. Istanbul, 1975.–B. 50,
7. Zakriyo Kitabchi. Turklar ve Islamiyet. Istanbul. 1984.–S. 145
8. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII-XX asr boshi). –T:Sharq; 1998. – 476 bet.
9. Suyunova O. Turkistonda 1916 yilgi milliy ozodlik kurashi (Sirdaryo viloyati misolida). – T:Fan; 1997. – 64 bet.
10. Choriev Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari (1916-1917 yillar). - T:Sharq; 1999. – 160 bet.

